



XALQARO BAHOLASH TADQIQOTLARI NATIJALARI ASOSIDA TA'LIM SIFATINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Ergasheva Malohat Tursunovna

A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti
Pedagogika va psixologiya kafedrasini mudiri, p.f.d.(DSc), dotsent.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.14778712>

Annotatsiya: Xalqaro baholash tadqiqotlari natijalari. Xalqaro baholash dasturlarini ta'lim jarayoniga tatbiq etishning ahamiyati. PIRLS va PISA xalqaro tadqiqot natijalari asosida ta'lim sifatini oshirish yo'lida amalga oshiriladigan yangi yondashuv va strategiyalar.

Аннотация: Результаты исследования международных оценочных программ. Значение внедрения международных оценочных программ в учебно-воспитательный процесс. PIRLS и PISA новые подходы и стратегии, которые будут реализованы для повышения качества образования на основе результатов международных исследований.

Abstract: The results of the study of the international evaluation program. The importance of introducing international assessment programs into the educational process. PIRLS and PISA are new approaches and strategies that will be implemented to improve the quality of education based on the results of international research.

Tayanch so'zlar: PIRLS 2021, PISA 2022, **mamlakatlar reytingi**, o'qish savodxonligi, matematik savodxonlik, tabiiy-ilmiy savodxonlik, O'zbekistonning natijalari

Ключевые слова: PIRLS 2021, PISA 2022, рейтинг стран, грамотность чтения, математическая грамотность, естественнонаучная грамотность, результаты Узбекистана

Keywords: PIRLS 2021, PISA 2022 country ranking, reading literacy, mathematical literacy, science literacy, Uzbekistan results

Mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yo'lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo'lmish yoshlarni ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda ilg'or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish, shu yo'lida xalqaro tajribalarni origanish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo'nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, agentliklar, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga egadir.

Xalqaro baholash tadqiqotlari o'quvchi-yoshlarning ijodiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalari, egallagan bilimlarini hayotda qo'llay olish layoqatiga turli xil topshiriqlar orqali baho berish va keyinchalik bu ko'nikmalar rivojlanishiga turtki berishga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotlar doirasida O'zbekiston Respublikasi o'quvchi-yoshlarining savodxonlik darajalari ilk bor sinab koriilar ekan, bunga o'ta mas'uliyat bilan yondashish talab etiladi. Buning uchun, xalqaro tadqiqotlar talablariga mos ravishda ishlab chiqilgan topshiriqlar asosida tajriba sinovlar o'tkazish, o'quv jarayonlariga bosqichma-bosqich integratsiya qilib borish orqali o'quvchilarda maxsus ko'nikmalarni rivojlantirib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi vaqtda butun dunyo miqyosida tabiiy fanlar ta'limini takomillashtirish bo'yicha intensiv ishlar amalga oshirilmoqda: tabiiy fanlarni o'qitishning maqsadlari, oquv materialini mazmunini tanlash tamoyillari aniqlashtirilayapti, darsliklar va boshqa o'quv vositalarini modernizatsiya qilish ishlari olib borilmoqda, o'qitishning samarali shakllari va metodlari ishlab chiqilmoqda. Bu jarayon hozirgi vaqtdagi fanning, fan va texnika o'rtasidagi o'zaro aloqalarning rivojlanishi, jamiyatning barcha sohalariga yangi axborot texnologiyalarining keng joriy etilishiga asoslangan ilmiy-texnik revolyusiyaning natijalarini o'z ichiga qamrab oladi.

Shu bilan bog'liq ravishda maktabda fanlarni oqitishning maqsadlari ham o'zgarmiqda. Tegishli axborotlarni egallashning kuchayishi esa o'quv materiallari strukturasini takomillashtirishni talab etmoqda. Bu esa o'quvchilarning fanlarni umumiy tamoyillari va qonuniyatlarini o'zlashtirish darajalariga va ularni nazariy fikrlash metodlari asosida egallashlariga o'z ta'sirini ko'rsatadi.



Ko'pgina mamlakatlarda fanlarni o'qitishga qo'yiladigan maqsadlar deyarli bir xil: o'quv fani bo'yicha ilmiy va texnik savodxonlik asoslarini shakllantirish; ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishni ta'minlash, ilmiy fikrlashni shakllantirish, turli manbalar (adabiyotlar, eksperimentlar va h.k) yordamida mustaqil bilim egallash ko'nikmalarini rivojlantirish.

Ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi 4-sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholaydigan tadqiqot natijalarini e'lon qildi. Unda ilk bor qatnashgan O'zbekiston 57 davlat orasida o'rtacha balldan pastroq natijani qayd etib, 49-o'rinni egalladi. Xalqaro miqyosda beshinchi marta o'tkazilayotgan mazkur xalqaro dasturda O'zbekiston ham ilk bor ishtirok etdi.

Tadqiqot 2021-yilda o'tkazilgan bo'lib, unda O'zbekiston PIRLS dasturi uchun qabul qilingan o'rtacha balldan (500) sezilarli past (437 ball) natija qayd qilgan va 57 mamlakat orasida 49-o'rinni egallagan.

Tadqiqotda qatnashgan ayrim davlatlarning o'rinlari va o'rtacha ballari: Singapur 587 ball bilan 1-o'rinni, Irlandiya 577 bilan 2-o'rinni, Gonkong 573 bilan 3-o'rinni, Rossiya 567 bilan 4-o'rinni, Finlyandiya 549 bilan 9-o'rinni, 38 o'rinda Qozog'iston 504 bilan 38-o'rinni, O'zbekiston 437 bilan 49-o'rinni egallagan.

Xalqaro shkalaning o'rtacha qiymati bo'yicha 4 ta: past daraja - 400 ball, o'rtacha daraja - 475 ball, yuqori daraja - 550 ball va eng yuqori daraja - 625 ball bo'lganda, O'zbekistonlik o'quvchilarning 70%i quyi va 34%i o'rtacha natijalarni qayd etishgan, o'quvchilarning 7%i yuqori natijalarga erisha olgan, rivojlangan darajasiga erishgan o'quvchilar esa yo'q.

Solishtirish uchun: Singapurda "eng yuqori daraja"ga yetgan o'quvchilar ulushi 35%ni tashkil qilgan. Sobiq post-sovet davlatlaridan Rossiyada "yuqori" darajaga yetgan o'quvchilar ulushi 63%ni, Litvada 54%ni, Latviyada - 40%, Gruziyada - 25%, Qozog'istonda - 28% va Ozarbayjonda 11%ni tashkil qilgan. Xalqaro miqyosda esa o'quvchilarning 36% yuqori va 75%i o'rtacha natijalarga erisha olgan.

Tadqiqotda qatnashgan o'quvchilar orasida qiz bolalar o'g'il bolalarga nisbatan yuqoriroq natijalarni qayd etishgan: qizlar va o'g'il bolalar natijalari orasidagi o'rtacha farq 16 ballni tashkil qiladi. O'zbekistonda esa bu farq 24 ballni tashkil qilgan (o'g'il bolalarning o'rtacha balli — 425, qizlarniki — 449 ball). O'g'il bolalar va qizlarning o'qish savodxonligi ko'rsatkichlari orasidagi eng kichik farq Ispaniya (2 ball), Chexiya va Isroilda (4 balldan) kuzatilgan bo'lsa, eng katta farq Ummon, Iordaniya (36 balldan), Bahrayn (49 ball) va Janubiy Afrikada (57 ball) qayd etilgan.

Matn turlari (axborot matni va badiiy matn) bo'yicha solishtirilganda O'zbekistonlik o'quvchilar badiiy matnni axborot matniga qaraganda nisbatan yaxshiroq tushunishlari qayd etilgan: badiiy matnni tushunish bo'yicha o'rtacha ball 438 ni tashkil qilgan bo'lsa, axborot matni uchun bu ko'rsatkich 434 ga teng bo'lgan.

O'qish ko'nikmalari bo'yicha solishtirilganda, O'zbekistonlik o'quvchilar ochiq aytilgan ma'lumotni topish va talqin qilish ko'nikmalari bo'yicha yuqoriroq natija 441 ball qayd etishgan. Nisbatan yuqoriroq darajadagi ko'nikma hisoblanuvchi talqin qilish, integratsiya (ma'lumotlarni birlashtirish) va baho berish ko'nikmalari bo'yicha esa sezilarli past natija - 430 ball qayd qilingan. Umuman olganda, jami 15 davlat, shu jumladan, AQSh, Shimoliy Irlandiya, Avstraliya, Gruziya, Irlandiya, Latviya o'quvchilari yuqori darajadagi o'qish ko'nikmalari bo'yicha balandroq natijalarni qayd qilishgan.

Tadqiqot o'quvchilarning ijtimoiy-iqtisodiy kelib chiqishi ularning o'qish natijalariga ta'sir qilishini ko'rsatgan. O'zbekistonda ham yuqori, o'rtacha va quyi ijtimoiy-iqtisodiy statusga ega oilalar farzandlarining natijalari o'rtasida sezilarli farq kuzatilgan.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, ota-onalarning **kitob o'qishga bo'lgan munosabati** ham o'quvchilarning natijalariga ta'sir ko'rsatadi. O'zbekistonda "kitob o'qishni juda yoqtiradigan" ota-onalarning farzandlari o'rtacha 449 ball, "kitob o'qib turadigan"larning farzandlari 431 ball va "kitob o'qishni yoqtirmaydigan"larning farzandlari 401 ball natija ko'rsatishgan.

Tadqiqotda, shuningdek, maktabga chiqishdan oldin oddiy o'qish ko'nikmalariga ega bo'lgan o'quvchilar 4-sinf oxiriga kelib maktabga chiqishdan oldin o'qish yoki yozishni bilmagan o'quvchilarga nisbatan yuqoriroq natijalar ko'rsatishi qayd etilgan. Masalan, O'zbekistonda maktabdan oldin yaxshi o'qiy



olgan o'quvchilar bilan maktabgacha o'qishni bilmagan o'quvchilar natijalari o'rtasidagi farq 36 ballni tashkil qilgan.

Shuningdek, tadqiqotda maktabdagi resurslar, tartib-intizom va xavfsizlik ham o'quvchilarning natijalariga ta'sir qilishi aniqlangan. Tadqiqotda qatnashgan O'zbekistonlik o'quvchilarning 49%i u yoki bu darajada resurslar yetishmasligi mavjud maktablarda, 35%i tartib-intizom bilan o'rtacha yoki jiddiy muammolar bor maktablarda o'qishi qayd etilgan.

Xalqaro baholash dasturi PISA tadqiqoti natijalari. O'zbekiston 15 yoshli o'quvchilarning matematika, o'qish va tabiiy-ilmiy savodxonligi bo'yicha ko'rsatkichlarini xalqaro baholash dasturi (PISA)da ilk bor qatnashib, so'nggi o'ntalikka kirdi. Tadqiqot o'quvchilar ko'nikmalariga ijtimoiy-iqtisodiy ahvol va oilaning oziq-ovqat xavfsizligi ta'sir qilishini ko'rsatdi.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT) o'quvchilarning ta'limdagi ko'rsatkichlarini baholash bo'yicha xalqaro dastur — PISA'ning 2022 yilgi natijalarini e'lon qildi. Tadqiqotda 81 mamlakat va hududdan 690 mingdan ortiq 15 yoshli maktab o'quvchilari ishtirok etdi. Unda O'zbekiston, Kambodja, Salvador, Yamayka, Mongoliya va Falastin kabi ba'zi davlatlar birinchi marta ishtirok etdi.

2022 yilgi tadqiqotda asosiy e'tibor matematik savodxonlikka qaratildi. Tadqiqotga o'qish savodxonligi va tabiiy-ilmiy savodxonlik bo'yicha testlar ham kiritilgan. Ishtirokchi davlatlarning **o'rtacha bali:** matematik savodxonlik bo'yicha 472 ball, o'qish - 476 ball, tabiiy-ilmiy savodxonlik - 485 ball.

Mamlakatlar reytingi. Singapurlik o'quvchilar barcha yo'nalishlar bo'yicha eng yaxshi natijalarni ko'rsatdi: matematik savodxonlik bo'yicha - 575 ball, o'qish savodxonligi bo'yicha 543 ball va tabiiy-ilmiy savodxonlik bo'yicha - 561 ball. Umuman olganda, Janubi-Sharqiy Osiyo va Xitoy mintaqalari o'quvchilari tadqiqotda yetakchilik qildi. Estoniya va Kanada ham barcha yo'nalishlar bo'yicha kuchli o'ntalikka kirdi.

23 ta mamlakatdagi maktab o'quvchilari matematika savodxonligi bo'yicha, 20 ta mamlakat maktab o'quvchilari o'qish savodxonligi bo'yicha, 24 ta mamlakat maktab o'quvchilari esa tabiiy-ilmiy savodxonlik bo'yicha **o'rtachadan yuqori** ball to'pladi.

O'zbekistonning natijalari. Tadqiqotda O'zbekistondagi 202 maktabdan 7200 dan ortiq o'quvchi ishtirok etdi. Mamlakat har uch yo'nalish bo'yicha ham oxirgi o'ntalikdan joy oldi: matematik savodxonlik — 364 ball (tadqiqotda ishtirok etgan davlatlar ko'rsatgan o'rtacha natija 472 ball bo'ldi), o'qish savodxonligi - 336 ball (476 ball), tabiiy-ilmiy savodxonlik bo'yicha - 355 ball (485 ball). O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasiga muvofiq, O'zbekiston 2030 yilgacha PISA natijalari bo'yicha **top-30** davlat qatoriga kirishni rejalashtirmoqda.

Tadqiqot savodxonlikning har bir yo'nalishida malakani 6 ta darajada aniqlaydi, ulardan **ikkinchisi** oddiy kundalik muammolarni hal qilish uchun zarur bo'lgan bazaviy ko'nikmalar hisoblanadi.

- Matematik savodxonlik bo'yicha O'zbekiston maktablari o'quvchilarining atigi 14,4 foizi 2-darajaga, 4,2 foizi 3-darajaga va 0,7 foizi 4-darajagacha yetib borgan. Qatnashganlar orasida matematikani 5 va 6-darajada biladigan o'zbekistonlik maktab o'quvchilari topilmadi.
- O'qish savodxonligi bo'yicha: o'quvchilarning atigi 12,2 foizi 2-darajaga, 1,8% - 3-darajaga va 0,1% - 4-darajaga erishdi.
- Tabiiy-ilmiy savodxonlik bo'yicha: 16,5% 2-darajaga, 2,2% 3-darajaga va 0,1% 4-darajaga yetdi.

Umuman olganda, o'quvchilarning 60% dan ortig'i savodxonlikning uchta yo'nalishi (o'qish, matematika, tabiiy-ilmiy) bo'yicha minimal darajaga (2-daraja) ham erisha olmadi.

O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy farqlar matematika natijalariga kuchli ta'sir ko'rsatadigan davlatlar qatoriga kiradi. Badavlat oilalar farzandlari (ijtimoiy-iqtisodiy ahvol bo'yicha eng yuqori 25 foizlik) ijtimoiy-iqtisodiy ahvol bo'yicha eng quyi 25 foizlikdagi bolalardan 22 ball ko'proq to'pladi. Shu bilan bir qatorda, kam ta'minlangan oilalardagi bolalarning taxminan 20 foizi matematika bo'yicha top-25% natijaga erisha oldi.

O'zbekistonning PISA 2022 baholashida tabiiy-ilmiy savodxonlik bo'yicha 355 ball to'plashi mamlakatning xalqaro ko'rsatkichlarga nisbatan hali rivojlanish yo'lida ekanligini ko'rsatdi (o'rtacha



xalqaro natija-485 ball). OECD ma'lumotlariga ko'ra, ushbu natija o'quvchilarning amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish imkoniyatlari cheklanganligi va nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etishda qiyinchiliklar mavjudligini anglatadi.

Mazkur xalqaro baholash dasturlari Respublikamiz ta'lim tizimini mazmunan yangilash, innovatsion ta'lim muhitini yaratish, ta'lim sifatini oshirish zaruratini keltirib chiqoradi:

Pedagog kadrlar tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat va magistratura bosqichi o'quv rejasiga xalqaro va milliy ta'lim tizimi paradigmalari bilan tanishtirish, o'qitishni xalqaro baholash dasturlari talablariniamalga oshirishga zamin tayyorlaydigan o'quv kurslari kiritish;

✓ Oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat va magistratura bosqichi talabalari, ilmiy izlanuvchilarni maktab ta'lim tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarning muammolari yuzasidan ilmiy izlanishlarga jalb qilish;

✓ Pedagog kadrlar tomonidan ta'lim tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalarning metodologik asoslarini o'zlashtirgan holda uni amaliyotga qo'llash yo'llarini belgilash;

✓ Innovatsion texnologiyalar talablari asosida ta'lim-tarbiya jarayonini loyihalash;

✓ O'qitishning asosiy shakllari bo'lgan ma'ruza, seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarda raqamli texnologiyalar va pedagogik innovatsiyalarni uyg'unlashtirish va amalda qo'llashdan iborat.

Xulosa qilib aytganda, o'quvchi-yoshlarda xalqaro baholash dasturi talablari asosida bilim va ko'nikmalarni tarkib toptirish, uzluksiz ta'limning barcha bo'g'inlarida bosqichma-bosqich amalga oshirishni talab etadigan keng qamrovli izlanish va tadqiqot o'tkazilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. J.Tolipova. Pedagogik kvalimetriya. TDPU bosmaxonasi. 2015y.107 b.
2. Епрашева М. Ва бошқалар. PISA, PIRLS TIMSS xalqaro baholash dasturlariga maktab o'quvchilarini tayyorlash mexanizmlari. Metodik qo'llanma. Toshkent, 2022-yil. 6 b.t.
3. Епрашева М. Xalqaro baholash dasturlarida tabiiy va ilmiy savodxonlik. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2023-yil. 19 b.t.
4. Андреас Шляйхер. Образование Мирового уровня. Как выстроить школьную систему XXI века? Москва. 2019. Издательство Национальное образование. ФИОКО
5. PISA 2022 Natijalar jildi: O'quvchilar tayyorligi uchun tabiiy-ilmiy savodxonlik. OECD Publishing, Paris. <https://www.oecd.org/pisa>
6. Афанасьева Т.П., Новикова Г.П., Тюнников Ю. С. Преемственность образования в общеобразовательном комплексе: инновационные модели и механизмы: монография. Ярославль; М.: Канцлер, 2020. 326с.
7. Пентин А.Ю., Заграничная Н.А., Никишова Е.А., Уровни освоения основных компетенций естественно-научной грамотности учащимися Московской области: результаты диагностики. Отечественная и зарубежная педагогика М: 2020. № 4. С. 202-218.
8. Афанасьева Т.П., Струкова Л.М. Модель поддержки системных нововведений дошкольных образовательных организаций// Муниципальное образование: инновации и эксперимент. 2020. № 4. С. 47–55.